

BAXTLILIK REYTINGGI.

Ravshanova Ozoda

Mirzo Ulug ‘bek nomidagi O ‘zbekiston milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Sotsiologiya yonalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya. *Ijtimoiy tarmoqlar bugun qudratli axborot qurolga aylangan ekan, dunyo miqyosida mafkuraviy-g ‘oyaviy tahdidlarni targ ‘ibot va tashviqot etishda muhim omil vazifasini o ‘tamoqda. Ijtimoiy tarmoqlar yordamida yoshlarning qalbi, ongi va ruhiyatiga ta ‘sir ko ‘rsatishga alohida e ‘tibor qaratilmoxda. Buning natijasida yoshlar ma ‘naviyati izdan chiqishiga olib kelmoqda. Shu boisdan ham, turli-tuman g ‘oyaviy, mafkuraviy va axborot xurujlarining avj olishini e ‘tibordan chetda qoldirmasligimiz darkordir. Biz ham maqolada milliy o ‘zlik va ma ‘naviy qadriyatlargacha qarshi tahdid va xatarlar tobora kuchayib borayotgan bir paytda yoshlar tarbiyasi va ularga ta ‘sir qiluvchi omillar tahlil qildik.*

Abstract. *As social networks have become a powerful information weapon today, they play an important role in promoting and propagandizing ideological-ideological threats on a global scale. Emphasis is placed on influencing the hearts, minds and minds of young people through social media. As a result, the youth's spirituality is derailed. Therefore, we should not ignore the rise of various ideological, ideological and informational attacks. In the article, we also analyzed the education of young people and the factors affecting them at a time when threats and dangers against national identity and spiritual values are increasing.*

Kalit so‘zlar: Axborot, global, mafkura, internet, ma’naviy tahdid, ijtimoiy tarmoq, virtual muloqot, modernizatsiya, ma’naviyat, innovatsia.

Key words: *Information, global, ideology, internet, moral threat, social network, virtual communication, modernization, spirituality, innovation.*

Bugungi kunga kelib, internet tizimining ijtimoiy tarmog‘ida ma’naviy, axloqiy tubanlikni "targ‘ib" etuvchi sahifalarning soni bir nech yuz miliondan oshayotganligi insoniyatni yanada tashvishlantiradi. Bu haqda Chingiz Aytmatov shunday yozadi: "Tuya terisini odamning taqir boshiga kiydirish shart emas. Endi sodir bo‘ladigan urushlar jang maydonida emas, balki mafkura poligonida yuz beradi. Shu jihatdan qaraganda, yoshlarning ko‘p vaqtini internetda behuda sarflashi katta fofia hisoblanadi"¹. Chunki, Globallashuv jarayonida mafkuraviy ta’sir o‘tkazish ko‘lamini haddan ziyod kengaytirib, beqiyos darajada tezlatib yuborganida ham ko‘rinadi. Inson o‘z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o‘tgan hayotiy-milliy qadriyatlargacha, sog‘lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo‘lmasa, har turli ma’naviy tahidlardarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko‘rinishdagi ta’siriga bardosh berishi amrimaholdir.

"Ijtimoiy tarmoqlar yoshlari tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi" Bugungi kunda internetdagi ijtimoiy tarmoqlar ayniqsa yoshlari orasida ommalashib bormoqda. Yurtimizda internetdan foydaluvchilarining aksariyati "Odnoklassniki.ru", "Feysbuk", "V.kontakte", "Moymir" kabi tarmoqlarda o‘z profillariga egadir. Biroq keyingi yillarda mazkur tarmoqlarning yoshlari tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan jihatlari ham ko‘zga tashlanayotgani ko‘pchilikni tashvishga solmoqda. So‘rovnomanini o‘tkazishdan maqsad ham mazkur masala yuzasidan o‘quvchilarimizning fikrlarini o‘rganish edi. Bir hafta davomida 110dan ortiq ishtirokchi "Internetdagi ijtimoiy tarmoqlar yoshlari

¹ Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahidlardan himoya T.: "Movaraunnahr", 2016. -B.5.

hayotida qanday o‘rin tutadi?" so‘rovnomasiga o‘z munosabatlarini bildirishdi. Qizig‘i shundaki, o‘quvchilarning 32 foizi ushbu tarmoqlar do‘stilar orttirish, manfaatli tanishuvlar uchun kerak degan fikrni ma’qullagan bo‘lsa, yana shuncha foydalanuvchi tarmoqlarning yoshlar tarbiyasi va odob-axloqiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganini tan olgan. Demak, bugun ijtimoiy tarmoqlar qanchalik ommalashmasin, uning salbiy oqibatlarini ko‘ra bilayotganlar safi ham oshib bormoqda.

Ma’lumki, dunyoda g‘oyaviy hamda informatsion xurujlar, turli mafkuraviy tahdidlar avj olayotgan bugungi kunda yoshlarimiz ma’naviyatini yuksaltirish, ularning tafakkurida sog‘lom dunyoqarash asoslarini shakllantirish eng muhim vazifadir. Bunday murakkab va tahlikali davrda ma’naviy – ma’rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon - atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, zo‘rlik bilan joriy etish oqibatida xalqaro maydonagi ziddiyat va qarama - qarshiliklar kuchayib borayotgan bir vaziyatda o‘zimizning kelajak strategiyamizni aniq belgilab olish, g‘animlarning g‘arazli urinishlari nimaga qaratilganligini har tomonlama anglab olish va keng jamoatchilikka yetkazish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch va osoyishta hayotimizga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy g‘oya targ‘iboti va mafkuraviy jarayonlarning amaliy ishlari va ijobiy natijalarini yoshlarga tushuntira bilish, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Ma’naviyat va ma’rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi" ekanligi to‘g‘risidagi qarashlarining mazmun-mohiyatini har bir fuqaroga, xususan, yoshlar ongi, qalbi va ichki dunyosiga singdirish zarurdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yoshlar bo‘sh vaqtini faqat sotsial tarmoqlarda o‘tirish bilan o‘tkazishlari noto‘g‘ri. Chunki, jonli, haqiqiy va real muloqot o‘rnini hech narsa bosa olmaydi. Yoshlar kitob o‘qishlari, o‘z ustilarida

ishlashlari hamda ijtimoiy faollikni oshirishlari lozimdir. Tarmoqdagi faollik hech narsani belgilamaydi va inson to‘g‘risida haqqoniy bo‘limgan ma’lumotlarni saqlashi mumkindir. Maqolamizga yakun yasar ekanmiz, biz sotsial tarmoqlarning hayotimizga bo‘lgan ta’sirini rad etolmaymiz. Biz ongli ravishda sotsial tarmoq a’zosi bo‘la turib, real hayot va virtual hayotni farqlay bilishimiz lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagи tahdidlardan himoya T.: “Movaraunnahr”, 2016. –B.5.
2. Таранов П. Энциклопедия высокого ума. М., 1999, с.16
- 3.RajabovH.I “Globallashuv sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari T.: “Fanvatexnologiya” 2020 yil, B-207
- 4.RajabovH.I“Globallashuv sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari T: 2020 yil, B-206-207.
5. Ташметов, Т. X. (2020). Миллий ғояни ёшлар онгиға сингдиришнинг замонавий усуллари. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 326-331.
6. Tashmetov, T. X. (2020). Prospects for relying on the basis of the national idea in protecting young people from hard and harmful ideas. International Journal For Innovative Engineering and Management Research, 9(11), 81-86.
7. Ташметов, Т. X. (2020). Ёшларга берилаётган имкониятларнинг тарбиядаги аҳамияти. "Science and Education" Scientific Journal, 1(7), 617-624.

8. Tashmetov, T. K. (2020). the importance of the use of innovative technologies in raising the spirituality of young people. Monthly Peer Reviewed & Indexed International Online Journal, 6(11), 25-27